

**ATOQLI OTLARNI TASNIFLASH MUAMMOSI**


*Baxtiyorova Maftuna Baxtiyorovna, Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti “Xorijiy tillar” kafedrası v.b. dotsenti, f.f.f.d., (PhD)*

**THE PROBLEM OF CLASSIFYING PROPER NOUNS**

*Bakhtiorova Maftuna Bakhtiorovna, University of Economics and Pedagogy Department of “Foreign Languages” associate professor, (PhD)*

**ПРОБЛЕМА КЛАССИФИКАЦИИ СОБСТВЕННЫХ ИМЁН**

*Бахтиярова Мафтуна Бахтияровна, доцент кафедры «Иностранные языки» Университета экономики и педагогики, (PhD)*



<https://orcid.org/003-0001-3219-320X>  
[maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com](mailto:maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com)

**Abstract:** *The classification of proper nouns has been a critical aspect of modern onomastics. Differences in the treatment of proper nouns across languages, such as English and Uzbek, highlight linguistic and cultural nuances, particularly in grammar and orthography. Proper nouns also exhibit distinctive semantic, denotative, and structural relationships, making them integral to linguistic identity and interlingual studies.*

**Key words:** *onomastics, classification, anthroponyms, toponyms, linguistic identity, cultural significance, denotative meaning.*

**Annotatsiya:** *Atoqli otlarning tasnifi zamonaviy onomastikaning muhim jihati hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida atoqli otlarning qo‘llanilishidagi farqlar til va madaniyat o‘ziga xosliklarini, xususan, grammatik va orfografik jihatlarni yoritadi. Atoqli otlar semantik, denotativ va tuzilma jihatidan o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, ular lingvistik identifikatsiya va tillararo o‘rganishda muhim o‘rin tutadi*

**Kalit so‘zlar:** *onomastika, tasnif, antroponimlar, toponimlar, lingvistik identifikatsiya, madaniy ahamiyat, denotativ ma‘no.*

**Аннотация:** *Классификация собственных имён представляет собой важный аспект современной ономастики. Различия в использовании собственных имён в таких языках, как английский и узбекский, подчеркивают собственные имена, также демонстрируют уникальные семантические, денотативные и структурные связи, что делает их важной частью лингвистической идентичности и межъязыковых исследований.*

**Ключевые слова:** *ономастика, классификация, антропонимы, топонимы, лингвистическая идентичность, культурная значимость, денотативное значение.*

**KIRISH.** Atoqli otlarning barcha turlari tasniflanadi. Zamonaviy onomastikada, A.V.Superanskaya tomonidan onomastik hududni optimal strukturalash taklif etilgan. Atoqli otlar tizimi xilma-xil bo‘lib, atoqli otlarni tasniflashning eng ma‘lum tizimlari A.V.Superanskaya va N.V.Podolskayalarga tegishli. Atoqli otlarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini

inobatga olgan holda, A.V.Superanskaya quyidagi tasnif guruhlarini ajratib ko‘rsatgan.

A.V.Superanskaya fikriga ko‘ra, eng birlamchi tasnif predmet-nominativ tasnif hisoblanadi, chunki “predmetga doirlik, odatda, nom “egasini” va uning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi”<sup>1</sup>.

N.V.Podolskaya o‘zining rus onomastik terminologiya lug‘atida A.V.Superanskayaning

<sup>1</sup> Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М., 1973. Б.66.

predmet-nominativ tasnifini to'ldirgan va kengaytirgan. Uning dunyoning onomastik manzarasi to'g'risidagi tasavvurini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

1) Fazoviy makon nomlari:

-kosmonim; -astronim.

2) Yer makoni nomlari: -toponim.

3) Yer makoni nomlari (jonli va jonsiz tabiat):

-jonli va jonsiz hudud ismlari (quruqliklar, dunyo okeani);

-inson faoliyati sohalari nomlari.

Yuqorida sanab o'tilgan tasniflardan kelib chiqib, atoqli ismlarning tizimi anchagina boy va turli xil hisoblanadi. N.V.Podolskaya tomonidan berilgan sxemalarda, tizimlardagi elementlarning iyerarxikligi yaqqol ko'rinishda. Tadqiqotchining fikricha, "obyektlar iyerarxiyasi tabiatda yaxshiroq kuzatiladi va insoniyat faoliyatida qiyinroq"<sup>2</sup>.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Taniqli o'zbek tilshunosi, professor O'.Q.Yusupov nazariyasiga ko'ra, "Atoqli otlar insonlarni yoki narsalarni bir-biridan farqlash uchun qo'llaniladigan individual nomlar (alohida ismlar)dir"<sup>3</sup>. Masalan:

Ingliz tilida: Brown, Nick, New-York, The Volga, The Black Sea va boshqalar.

O'zbek tilida: Ergashev, Toshkent, Volga, Qora dengiz va boshqalar.

Ingliz tilida oylar va hafta kunlari atoqli ot hisoblansa, o'zbek tilida ular turdosh otlar guruhiga kiradi.

Ingliz tilida: He came in September.

O'zbek tilida: U sentyabrda keldi.

Ushbu xilma-xilliklar tillararo interferensiyaga sabab bo'lishi mumkin hamda "He came in "september" kabi orfografik xatoliklar kelib chiqishi kuzatiladi. Xar ikki tilda – o'zbek va ingliz tillarida atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi.

Ingliz tilidagi atoqli otlar o'zbek tilidan ko'ra ko'proq grammatik ahamiyatga ega. Chunki, ular oldidan qo'llaniladigan artikllar muayyan cheklovlarni talab qiladi. Qoidaga ko'ra, atoqli otlar oldidan artikllar ishlatilmaydi.

Professor O'.Q.Yusupov atoqli otlarning quyidagi tasnifini ishlab chiqqan:

1. **Antroponimlar** – inson ismlari, familiyalar, taxalluslar, laqablar.

Ingliz tilida: Shakespeare, Madonna, Michael, Ann, Mary, Jack London, Peter.

O'zbek tilida: Navoiy, Mirmuhsin, Rayhon, Behzod, Aziza va boshqalar.

Professor O'.Q.Yusupovning ta'kidlashicha, antroponimlar – lingvokulturemadir. Chunki ularda millat madaniyati oz bo'lsa-da aks etadi. Lingvokulturema madaniyatning biror qismini o'zida mujassam etgan til birligidir.

2. **Toponimlar** – joy nomlari, jumladan, shaharlar, qishloqlar, tumanlar, viloyatlar, davlatlar, shtatlar va mamlakatlar nomlari.

Ingliz tilida: London, England, Europe, Chilarzar District va boshqalar.

O'zbek tilida: Toshkent, Olmazor tumani, Samarqand viloyati va boshqalar.

3. **Gidronimlar** – daryo, ko'l, kanal, bo'g'oz, dengiz, okeanlar nomlari.

Ingliz tilida: The Thames, The Baikal, The British Channel, The Persian Gulf,

The Black Sea, The Atlantic (Ocean) va boshqalar.

O'zbek tilida: Sirdaryo, Qora Dengiz, Tinch okeani, Fors ko'rfazi va boshqalar.

4. Ko'cha, maydon va xiyobonlar nomlari.

Ingliz tilida: Oxford Street, Hyde Park, Navoi Street, Trafalgar Square va boshqalar.

O'zbek tilida: Navoiy ko'chasi, Mustaqillik maydoni, G'ofur G'ulom bog'i.

5. Gazeta va jurnallarning nomlari

Ingliz tilida: The Times, The Pravda, The Meridian va boshqalar.

O'zbek tilida: Xalq so'zi, Darakchi, Saodat, G'uncha va boshqalar.

6. Kemalar va mehmonxonalar nomlari

Ingliz tilida: The Victoria, The Titanic, The Aurora va boshqalar.

O'zbek tilida: Titanik, Chorsu mehmonxonasi va boshqalar.

7. Orollar, yulduzlar to'dasi va tog' chizmalarining nomlari. Ingliz tilida: The British Isles, The Great Bear, The Alps va boshqalar.

O'zbek tilida: Kuril orollari, Katta cho'mich yulduz turkumlari va boshqalar.

<sup>2</sup> Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М., 1988. Б.14.

<sup>3</sup> Юсупов Ў.Қ. Инглиз ва Ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. – Т. "Академнашр", 2013. –Б 43.

8. Oylar va hafta kunlarining nomlari  
Ingliz tilida: September, May, Sunday, Monday va boshqalar. O'zbek tilida: sentyabr, may, yakshanba, dushanba va boshqalar.

9. Til va millat nomlari  
Ingliz tilida: English, Russian, Uzbek, the English, the Russian va boshqalar. O'zbek tilida: ingliz tili, rus tili, inglizlar, ruslar va boshqalar<sup>4</sup>.

**METODOLOGIYA.** Nominatsiya tavsifiga ko'ra predmetlarning nomlari ikkiga bo'linadi: turdosh va atoqli. Turdosh otlar o'zaro o'xshash bo'lgan bir qator ko'p buyumlarni anglatadi. Nutqda ular mazkur guruhdagi qandaydir bir alohida buyumga, yoki muayyan turdagi barcha buyumlarga taalluqli bo'lishi mumkin (masalan, kema, bola, muassasa, gazeta).

Turli xil obyektlarning muayyan nom bilan atalishida ularning ma'lum belgilari e'tiborga olinadi. Buyuk shaxslarning nomini abadiylashtirish uchun u bilan qandaydir bog'liq bo'lgan holat hisobga olinadi yoki shaxsga katta hurmat yuzasidan joy shu shaxs nomi bilan yuritiladi. Masalan, Hamzaobod shahri shu joyda ma'lum davr yashab, mehnat qilgan Hamza nomi bilan; Qipchoq, Saroy qishloqlarining nomlari shu qishloq aholisining etnik kelib chiqishi bilan, Qatorterak, Uchtol, Beshariq, Baland masjid singari joy nomlari shu joydagi o'simlik, bino, suv inshooti xususiyati bilan bog'liq ravishda qo'llangandir.

**NATIJALAR.** Shaxsga qo'yilgan nomlarda esa ota-onaning orzu-umidi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisi (Xoldor, Anor, Qovoqvoy), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshaboy, Boltaboy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumaboy) o'z aksini topgan bo'ladi. Nomlar, ularning turlari nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limiga "onomastika" (lot. onuma "nom" so'zidan olingan) deyiladi.

Atoqli otlarga, shuningdek, kitoblar, filmlar, boshqa badiiy va san'at asarlarining nomlarini ham kiritish mumkin. Shuni qayd etish muhimki, atoqli otlarga muayyan darajada tavsiflovchi nomlash ham xos. Chunki ular predmetni unga o'xshash predmetlar sinfidan ajratib ko'rsatadi, demak, o'z ichida mazkur sinfga ishorani yaqqol bo'lmagan holatda ifodalaydi. Shunday qilib, Bobik, Qoplon,

Sharik laqablarining har biri mauayyan bir itga tegishli, biroq ular it laqablari bo'lganligi bois aynan ushbu atoqli turdosh otlarga ham o'tkazish mumkin: bobik, barbos, sharik so'zlari individuallashtiruvchi kuchini yo'qotadi va umuman istalgan itni ko'rsatadi.

Boshqa bir tomondan, til sohiblari tilda nominativ birliklarni qo'llashda muayyan erkinliklarga egalar, ya'ni, ular, odamlarning ismini itlarga, kemalarga, tayfunlarga qo'yishi mumkin. Masalan, Charli, Adolf, Aleks, Charles, Gloria.

Ko'plab tadqiqotchilar til birligi sifatida atoqli otlarning ma'nosining murakkabligi, dialektikligini e'tirof etadi (aksariyat hollarda so'zlarning). Zamonaviy so'z nazariyasida so'zning ma'nosi deganda ham tinglovchi, ham so'zlovchi tomonidan deyarli bir xil tushuniladigan so'z mazmuni tushuniladi va o'z ichiga quyidagi uch turdagi munosabatni qamrab oladi:

- Denotativ – so'zning predmetga munosabati;
- Signifikativ – tushunchaga munosabat;
- Tuzilmaviy – so'z ma'nosining, umuman so'zning bu tildagi boshqa so'zlarga munosabati.

**XULOSA.** Atoqli ot, til birligi bo'lib, so'z yoki funksional jihatdan o'xshash bo'lgan so'z birikmasiga nisbatan yuqorida sanab o'tilgan barcha munosabatlarga: denotativ, signifikativ va tuzilmaviy munosabatga ega, biroq atoqli otdagi ularning sifati birmuncha o'ziga xos bo'lib, atoqli otlarga til-nutq o'ziga xosligini ta'minlaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. B.M.Bakhtiyorovna. Discursive-pragmatic nature of anthroponyms-Asian Journal Of Multidimensional Research, 2022, India, 110-114.
2. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. Reflection of Onomastic Principles in Naming. Psychology and Education, 2021, AQSh, 2874-2878.
3. Yusupov O'.Q. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – T.: Akademnashr, 2013. –B 43.
4. Yusupov O'.Q. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – T.: Akademnashr, 2013. –B 42-44.
5. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М., 1988. Б.14.
6. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. –М., 1973. Б.66.

<sup>4</sup>Юсупов Ў.К. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. – Т. “Академнашр”, 2013. –Б 42-44.